



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- iyul holatiga 2959,3 ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan 28,2 ming kishiga yoki 0,9 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1918,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 %), qishloq aholisi soni 1041,3 ming kishini (35,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2022- yil yanvar-iyun


- Aholi soni **28,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **35,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **7,0 mingta nikoh** va **2,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2022- yil yanvar-iyun oylarida)




Demografik holat

Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2022- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 397,5 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4457,3 kishi), Namangan (928,6 kishi), To'raqo'rg'on (875,1 kishi) va Norin (811,9 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (78,6 kishi) va Mingbuloq tumanida (178,9 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2022- yil 1- iyul holatiga ming kishi)



Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 35,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 24,5 promilleni tashkil etdi, hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega oshganligi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 23,7 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:
18,5 ming nafar



Qiz bolalar:
17,3 ming nafar




Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti
(2022- yil yanvar-iyun, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Vafot etganlar. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 6,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 55,1 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,2 %i - o'simtalardan, 5,0 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,4 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 16,6 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2022- yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Demografik holat

Nikoh. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 4,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2021- yilning mos davriga nisbatan Namangan shahar va barcha tumanlarda kamaygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsienti
(2022- yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2183 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2021- yilning mos davriga nisbatan Namangan shahar va barcha tumanlarda ko'paygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2022- yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Migratsiya. 2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1275 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2594 kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1319 kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 1469 kishi bo'lgan.


Aholi migratsiyasi (kishi)

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1824	1275
Ko'chib ketganlar	3293	2594
Migratsiya saldosi	-1469	-1319




Demografik holat

Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni




Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- iyul holatiga 668,5 ming kishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 16,6 ming kishiga yoki 2,5 % ga o'sgan.

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promilleda)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida 9,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 22,9 promilleni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 4,7 ga (2021- yilning mos davrida 27,6 promille bo'lgan) kamaydi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida 1545 ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 3,8 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan—1,0 promillega kamaygan (2021- yilning mos davrida 4,8 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 1472 ta nikoh va 517 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 3,6 promilleni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega kamaydi. (2021- yilning mos davrida 5,4 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,3 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega (2021- yilning mos davrida 1,2 promille bo'lgan) ko'paygan.

Demografik holat

Namangan shahridagi demografik holat.

